

## MAMLAKATDA BUDJET TIZIMI MOLIYAVIY TARAQQIYOT ASOSI

**Mamayusupova Shahina Ulug‘bek qizi**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

**Aktam Burxanov Usmanovich**

Ilmiy rahbar

E-mail: [Shahinamamayusupova28@gmail.com](mailto:Shahinamamayusupova28@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Mamlakat budget siyosati shuningdek budget tizimining davlat uchun qay darajada ahamiyatli ekanligi keltirib o‘tilgan. Budget tizimining ma’lum maqsadlari shakllanishi va mutasaddilar tomonidan ko‘rib chiqilishi. Uning xarajat va daromadlari raqamlarda ifodalangan ko‘rsatkichlari mavjud.

**Kalit so‘zlar:** Budget, jamg‘arma, prognoz,tizim, valyuta, ijtimoiy, iqtisodiy, prinsep, tamoyil, strategiya.

Har bir davlatning o‘z xavfsizlik choralari bo‘ganidek, budget tizimining ham moliyaviy xavfsizligi mavjud. Budget tushunchasi xalq tilida aytganda davlatning belgilangan ma’lum bir vazifalarini bajarishga yo‘naltirladigan eng yirik pul jamg‘armasiga aytiladi.

Davlat budgeti - mamlakatning o‘z pul daromadlari va xarajatlarining ro‘yhatini o‘zida ifodalovchi asosiy moliyaviy hujjatdir<sup>97</sup>. Davlat budgeti davlatning maqsadli vazifalari va aholining ijtimoiy farovonligini ta’minalash maqsadida jamg‘ariladi. Har bir mamlakatni budget tizimisiz tasavvur qilish mavhum tushuncha. Sababi pul fondlari davlat ichida maqsadli va belgilangan tarzda bo‘lishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimi quyidagi prinsiplarga asoslanadi:  
-byudjet tizimining yagonaligi;  
- byudjet tizimining O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy-hududiy tuzilishiga muvofiqligi;

- byudjet tizimi byudjetlarining balansliligi va o‘zaro bog‘liqligi - byudjet tizimi byudjetlari daromadlarini prognoz qilish va xarajatlarini rejalashtirish;

-byudjet tizimi byudjetlari mablaglaridan foydalanishning to‘liq yo‘naltirilganligi va maqsadlilik xususiyati;

- byudjet tizimi byudjetlarining mustaqilligi:

<sup>97</sup> Moliyaviy xavfsizlik 2019 Aktam Burxanov

-kassaning yagonaligi:98

Davlat uchun davlat tizimining yagonaligi muhim hisoblanadi. Agar ikki yoki undan ortiq davlat budget tizimi mavjud bo'lsa turli xildagi noqulayliklarni keltirib chiqishi mumkin. Shuningdek, Har bir hududiy tuzilishga ega bo'lgan budget tizimining aniq va ajralmas bo'lishligi darkor.

Budget tizimining eng ahamiyatli jihatni uning oldindan prognoz qilinishi va ma'lum raqamlarda daromad va xarajatlarini belgilash hisoblanadi va kassaning yagonaligi ham bunga asosiy misoldir.

Davlatning budget tizimi oldindan aniq belgilangan va tahlil natijalardan o'tgan bo'ladi. Jumladan uning umimiy daromadlari va xarajatlari nazarda tutiladi.

Masalan, 2023-yil uchun davlat budgeti daromadlari (Davlat maqsadli jamg'armalariga transfertlarni inobatga olmagan holda) 232,1 trln so'm, xarajatlari esa 227,9 trln so'm miqdorida transfert ajratilishi rejalashtirilmoqda. Shuningdek, davlat maqsadli jamg'armalari daromadlari 41,3 trln so'm miqdorida, xarajatlari esa 70,2 trln so'm miqdorida rejalashtirilmoqda. Bunda, davlat maqsadli jamg'armalariga respublika budgetidan 29,9 trln so'm transfertlar ajratish belgilandi. Xususan, budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlari 37,8 trln so'm, xarajatlari 53,5 trln so'mni tashkil etgan holda Davlat budgetidan 15 trln so'mmiqdorida transfert ajratilishi rejalashtirilmoqda. Davlat moliyasini boshqarishning xalqaro standartlariga muvofiq budget qamrovini oshirish hamda to'liqligini ta'minlash maqsadida, 2021 yildan boshlab tashqi qarz hisobidan davlat dasturlariga rejalashtirilayotgan xarajatlar konsolidatsiyalashgan budget tarkibiga kiritildi. 2023 yilda ushbu xarajatlar 7,8 trln so'm miqdorida bo'lishi prognoz qilinmoqda. Bunda davlat budgeti va davlat maqsadli jamg'armalari budgetlari 24,7 trln so'm yoki prognoz qilinayotgan yalpi ichki mahsulotga nisbatan 2,3 foiz miqdorida taqchillik bilan rejalashtirilgan. Davlat budgeti va Davlat maqsadli jamg'armalarining taqchilligi davlat ichki va tashqi qarzlarini jalb qilish hamda budgetlarning yil boshiga qoldiq mablag'lari hisobidan qoplanadi. 99

Davlat budget tizimi davlat soliq va budget siyosatining asosiy yo'naliishlari asosida tuziladi va ma'lum makroiqtisodiy ko'rsatkichlar shuningdek prognozlariga asoslanadi.

Shundan so'ng hukumat va mutasaddilar tomonidan ko'rib chiqiladi va hujjat shakliga keladi. Ushbu hujjat shakli bir yillikka mo'ljallangan va budgetni tayyorlashdan to budgetni tasdiqlashgacha bo'lgan bosqich budget jarayoni deb ataladi. Va shuni ta'kidlash joizki, har bir davlatning o'z milliy valyutasi bo'lanidek O'zbekiston Respublikasining ham milliy valyutasi so'mda amalga oshiriladi.

<sup>98</sup> Moliyaviy xavfsizlik 2019 Aktam Burxanov

<sup>99</sup> <https://www.gazeta.uz/oz/2022/12/22/budget-for-2023/>

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, har bir mamlakat budjet tizimining mavjudligi davlatning moliyaviy siyostining tizimli ekanligini bildiradi va budjet tizimi uning nazorati shakillanishi jarayonlarisiz tasavvur qilish mushkul masala hisoblanadi. Puxta ishlangan yillik budjet hujjati mamlakat moliyaviy taraqqiyot asosidir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Moliyaviy xavfsizlik 2019 Aktam Burxanov
2. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/12/22/budget-for-2023/>